

XII. XORAZM VILOYATINING DOIMIIY AHOLISI



Demografiya statistikasi –


ijtimoiy-iqtisodiy statistika sohalaridan biri bo‘lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo‘lishi bilan bog‘liq ma‘lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig‘ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug‘ullanadi.




Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi



Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar 2024- yil yanvar-dekabr



Aholining o'rtacha yoshi yil boshiga



Aholining o'rtacha yoshi - bu aholining yosh tarkibining taxminiy umumiy tavsifi. U umumiy aholi tarkibidagi barcha odamlarning yoshlarining o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi. O'rtacha yosh – bu aholi soni jihatidan teng bo'lgan ikkita guruhga bo'lingan yosh bo'lib, ularning birinchi yarmi yosh, ikkinchi yarmi esa katta.


Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

1- yanvar holatiga, ming kishi

Shahar va tumanlar nomi	2024 yil	2025- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha	1 995,6	2 032,4	101,8
shaharlar :			
Urganch sh.	153,1	155,7	101,7
Xiva sh.	98,8	100,1	101,3
tumanlar:			
Bog'ot	176,1	179,6	102,0
Gurlan	157,2	159,8	101,7
Qo'shko'pir	182,3	185,4	101,7
Urganch	213,5	218,4	102,3
Hazorasp	206,0	210,0	101,9
Tuproqqal'a	59,3	60,6	102,2
Xonqa	198,4	201,9	101,8
Xiva	154,8	158,3	102,3
Shovot	180,4	183,6	101,8
Yangiariq	123,2	125,1	101,5
Yangibozor	92,5	93,9	101,5

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi


2025- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi



Xorazm viloyati shahar va tumanlari kesimida 2025- yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi sonining ko'payishi Urganch va Xiva tumanida 102,3 foizni, Tuproqqal'a tumanida 102,2 foizni, Bog'ot tumanida 102,0 foizni tashkil etgani kuzatildi.

Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi

2025- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Viloyatda 2025- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **336** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 6 kishiga ortgan (2024- yilda 1 kv.km.ga 330 kishi).


Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **5 375** kishi, Xiva shahrida **2 937** kishi, Urganch tumanida **490** kishi, Hazorasp tumanida **468** kishi, Xonqa tumanida **466** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a tumanida **38** kishi, Yangibozor tumanida **274** kishi, Yangiariq tumanida **311** kishi, Qo'shko'pir tumanida **344** kishini tashkil etgan.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni, (2024yil yanvar-dekabr) kishida


Jami		Erkak		Ayol	
Urganch sh.	3825	2008	Urganch sh.	1817	
Xiva sh.	2173	1116	Xiva sh.	1057	
Bog'ot	4431	2349	Bog'ot	2082	
Gurlan	3620	1878	Gurlan	1742	
Qo'shko'pir	4190	2155	Qo'shko'pir	2035	
Urganch	4624	2388	Urganch	2236	
Hazorasp	5438	2807	Hazorasp	2631	
Tuproqqal'a	1419	741	Tuproqqal'a	678	
Xonqa	4817	2535	Xonqa	2282	
Xiva	3866	2000	Xiva	1866	
Shovot	4303	2190	Shovot	2113	
Yangiariq	2677	1361	Yangiariq	1316	
Yangibozor	2040	1054	Yangibozor	986	

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti

(2024- yil yanvar-dekabr oylari)




Hududlar kesimida vafot etganlar soni, (2024yil yanvar-dekabr) kishida




Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

(2024- yil yanvar-dekabr oylari)



O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi
2024- yil yanvar-dekabr, kishi





2024- yilning yanvar- dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining 49,0 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,1 %i – o‘simtalardan, 5,3 %i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 5,0 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,9 %i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 0,9 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 23,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralganlar soni
(2024- yil yanvar–dekabr)

	Jami nikohlar soni (kishi)	Jami nikohdan ajralganlar soni (kishi)
Viloyat bo'yicha	16282	1924
Urganch sh.	1076	261
Xiva sh.	821	96
Bog'ot	1534	120
Gurlan	1296	145
Qo'shko'pir	1446	184
Urganch	1625	189
Hazorasp	1798	211
Tuproqqal'a	512	85
Xonqa	1716	150
Xiva	1368	98
Shovot	1417	173
Yangiariq	955	125
Yangibozor	718	87

Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralganlar koeffitsiyenti





AHOLI MIGRATSIYASI

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni
(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar, kishida)

Shahar va tumanlar	2023 - yil yanvar- dekabr			2024- yil yanvar-dekabr		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Viloyat bo'yicha	7 871	9 679	-1 808	10 822	12 391	-1 569
shaharlar:						
Urganch sh.	2 152	2 446	-294	2902	3139	-237
Xiva sh.	448	638	-190	551	1068	-517
tumanlar:						
Bog'ot	186	347	-161	223	372	-149
Gurlan	189	481	-292	283	593	-310
Qo'shko'pir	258	539	-281	413	729	-316
Urganch	2 110	1 504	606	2960	1843	1117
Hazorasp	295	931	-636	437	941	-504
Tuproqqal'a	681	382	299	771	628	143
Xonqa	210	580	-370	318	743	-425
Xiva	546	627	-81	1048	825	223
Shovot	255	539	-284	358	642	-284
Yangiariq	319	365	-46	309	446	-137
Yangibozor	222	300	-78	249	422	-173

2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 10 822 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 12 391 kishini, migratsiya saldosi minus 1 569 kishini tashkil etdi. (2023- yil yanvar-dekabr oylarida minus 1808 kishini tashkil etgan).



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 10 822 ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 5,4 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 1,4 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-dekabr oylarida 4,0 promille bo'lgan).



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 12 391 ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 1,3 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,9 promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar.

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.